

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**IBRAYMOV IKLASBAY YEREJEPOVICH**

**INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA  
TALABALARNING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Ibraymov Iklasbay Yerejepovich**

Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish ..... 3

**Ибраймов Ыкласбай Ережепович**

Развитие творческих компетенций студентов на основе интегрированных образовательных технологий ..... 23

**Ibraymov Iklasbay Yerejepovich**

Development of creative competences of students on the basis of integrated educational technologies..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**IBRAYMOV IKLASBAY YEREJEPOVICH**

**INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA  
TALABALARNING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyada B2025.1.PHD/Ped6082 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Karlibaeva Guljaxan Ermeqbaevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Adizov Baxtiyor Raxmonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Pirniyazov Iskender Kudiyarovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" 14 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy. Tel/faks: (99861) 229-40-75; e-mail: [nkspi\\_info@edu.uz](mailto:nkspi_info@edu.uz).)

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (137 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy. Tel: (99861) 229-40-75

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" 04 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "8" 04 dagi 137- raqamli reestr bayonnomasi).

  
  
**B.P. Otemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.- m.f.d., professor  
  
**Z.K. Kurbaniyazova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor  
  
**A.Q. Berdimuratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tufayli kreativ fikrlovchi inson kapitali asosiy resursga aylanayotgan sharoitda zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda o'qitishning metodik asoslarini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning metodik tizimini yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shunga ko'ra, talabalarda kreativligini amaliyot namoyon etish, talabalarga individual yondashuv, ta'limni texnologiyalashtirish va talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga oid samarali usullarini ta'lim tizimiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida shaxsning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, ijodiy faoliyatini tashkil etish muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'limda kreativlik qobiliyatlarni integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirishning ichki va tashqi omillari ta'lim jarayoni mazmunini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari muhim omillarni keltirib chiqarib, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish qobiliyatlarini shakllantirish va pedagogik yondashuvlar vositasida rivojlantirishning ilmiy-amaliy shart-sharoitlarini takomillashtirish asosida belgilash zaruratini isbotladi.

Mamlakatimizda ta'limning istiqbollari va konseptual asoslari shaxsning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, uning ilmiy dunuoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati olib borayotgan siyosatda yoshlarning unib o'sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. Prezidentimizning: "Yoshlarimiz mustaqil va kreativ fikrleydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan shaxslar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun jamiyatimizning bor kuchi va imkoniatlarini safarbar etamiz"<sup>1</sup> degan fikrlari hozirgi globallashuv davrida shaxsni ochiq ijtimoiy muhitda kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6-noyabr 2020 yildagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 oktyabr 2020 yildagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari va ushbu faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. –592 b.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda T.Aliboev, A.Aripdjanova, R.Djuraev, N.Egamberdieva, G.Ibragimova, Z.Kurbaniyazova, N.Muslimov, L.Qoraeva, M.Turdieva, B.Xodjaev, F.Yuzlikaevlarning tadqiqotlarida talabalarda kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, kreativ tafakkurni shakllantirishning mavjud pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida G.Altshuler, R.Granovskaya, E.P.Ilin, V.Kan-Kalik, O.N. Kinyakina, A.Matyushkin, O.Nikitinlar shaxsda kreativlikni rivojlantirishning bosqichlarini tadqiq etishgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan E. de Bono, Drapeau Patti, G.Gardner, Dj.Gilford, A.Maslou, J.S.Renzulli, E.Torens, D.Vatsonlar kreativlik tushunchasining ma'naviy mohiyati, psixologik jihatlarini tahlil etib, shaxsda kreativlik sifatlarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasini tashxislash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Manba va adabiyotlarning ilmiy tahlili shundan dalolat beradiki, kompetentlik yondashuvning ilmiy-uslubiy mazmuni, ta'riflari va tasniflari, ilmiy qonuniyatlari olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Biroq, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, shakllari, ta'lim texnologiyalari, samarali metodlar va texnik vositalari ilmiy-metodik va o'quv jihatdan etarlicha asoslanmagan va kompetensiyaviy yondashuv asosida maxsus joriy etilmagan. Bu esa o'z navbatida, ilmiy asosda talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish tuzilmasini ishlab chiqish orqali o'quv mashg'uloti samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini amaliyotga kompetensiyaviy yondashuv asosida tatbiq etish zaruratini taqozo etadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti "Uzluksiz talim tizimida III-renassans davriga mos yoshlarni o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" nomli amaliy mavzu doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativligini kompetensiyaviy yondashuv muammosini tahlil qilish orqali pedagogik asoslarini aniqlashtirish;

interfaol metodlarning pedagogik ta'sirchanlik imkoniyatlari asosida talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchining harakatlar mazmunini takomillashtirish;

talabalar intellektual faoliyatini samarali tashkil etish va o'qituvchilarni tayyorlashga yordam beradigan ta'limiy muhitni yaratish asosida pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirish;

ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan integrativ yondashuv yondashuv va nostandart topshiriqlar ishlab chiqish asosida talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish;

**Tadqiqotning obykti** sifatida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni olingan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida Qo'qon davlat pedagogika instituti, Nukus davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat pedagogika institutlaridan jami 213 nafar respondent-talabalar ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-statistik), diagnostik (suhbat, onlayn va offlayn so'rovnoma, kuzatish, qiyoslash va tasniflash), test topshiriqlari, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbat, bahs-munozara, pedagogik tajriba-sinov (ma'lumot va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni diagramma, grafik, jadval, rasmlar ko'rinishida taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

talabalar kreativligini integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvini (adaptiv, yo'naltiruvchi, izlanuvchi, interfaol) tatbiq etishning pedagogik asoslari aniqlashtirilgan;

talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish interfaol metodlar (muammoli, omega-xarita, fikrlarning shiddatli hujumi, Doodle, Klaster)ning pedagogik ta'sirchanlik imkoniyatlari o'qituvchining boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va kuzatuvchi harakatlar mazmuni takomillashtirilgan;

talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari talabalar intellektual faoliyatini (shaxsiy-kreativ, funksional-kreativ, kreativ faoliyat) samarali tashkil etishga va o'qituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlashga yordam beradigan ta'limiy muhitni yaratish asosida takomillashtirilgan;

talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan integrativ yondashuv va nostandart topshiriq (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanuvchan, kreativ)lar ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

talabalarda kreativ kompetensiyalarni integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning o'quv metodik ta'minoti ishlab chiqilgan ("Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darsligi, o'quv-metodik majmualar, ilmiy -amaliy tavsiyalar);

talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol ta'lim muhitini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan pedagogik yondashuvga, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligiga va sinovdan o'tkazilganligiga, nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligiga, keltirilgan tahlillar va ularning natijalarining asoslilikiga, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar yordamida tasdiqlangan bo'lishiga, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligiga hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi ilmiy-amaliy va pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalaridan tadqiqotchilar foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

talabalar kreativligini integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvini (adaptiv, yo'naltiruvchi, izlanuvchi, interfaol) tatbiq etishning pedagogik asoslarini aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli darsligini yaratishda foydalanilgan (Guliston davlat universitetining 2023-yil 30-sentyabdagi 156-sonli buyug'i; 156-05 raqamli ruxsatnomasi) foydalanilgan. Natijada, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish imkoni kengaytirilgan.

talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish interfaol metodlar (muammoli, omega-xarita, fikrlarning shiddatli hujumi, Doodle, Klaster)ning pedagogik ta'sirchanlik imkoniyatlari o'qituvchining boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va kuzatuvchi harakatlar mazmunini takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetining PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etilishning metodologik asoslarini takomillashtirish"(2017-2020 yy.) mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 21-oktabrdagi 11-05-6009/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, kreativ kompetensiya tushunchalarning mazmuni, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan.

talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari talabalar intellektual faoliyatini (shaxsiy-kreativ, funktsional-kreativ, kreativ faoliyat) samarali tashkil etishga va o'qituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlashga yordam beradigan ta'limiy muhitni yaratish asosida takomillashtirish

hamda talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan integrativ yondashuv va nostandart topshiriq (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanuvchi, kreativ)lar ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli darsligini yaratishda foydalanilgan (Guliston davlat universitetining 2023-yil 30-sentyabdagi 156-sonli buyug'i; 156-05 raqamli ruxsatnomasi) foydalanilgan. Natijada, talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shartlarini nazariy va tajriba-sinov asosida uning samaradorligini baholashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, 124 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot-ishlari rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning yangiligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ta'lim jarayonlarining zarurati, talabalar kreativligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish haqida ma'lumotlar mazmuni yoritib berilgan.

Ta'lim jarayonida professor-o'qituvchi va talabaning "subyekt-subyekt" munosabatlarini insonparvarlashtirish hamda erkinlashtirish orqali o'quv jarayonini mustaqil tashkil etib, boshqaruvchi, har bir talaba shaxsining ijodiy va kreativ rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy o'qituvchi shaxsiga bo'lgan jamiyatimizning ijtimoiy-pedagogik talablarni vujudga keltiradi.

Shu o'rinda olim D.Pattining quyidagi fikrini alohida keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "O'quv mashg'ulotlarida hozirda etishmaydigan zaruriy omil – bu ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kreativligidir" deb izohlaydi.

Talabalar kreativligini rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan e'tirof etilgan axloqiy-tarbiyaviy va ilmiy meroslarda kreativlik hamda o'quv-bilishga oid

tarbiyasi, uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni kabi vazifalar muhim o‘rin tutadi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining shaxs kreativligi haqidagi bebaho fikrlarining konseptual asoslarini tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, shaxsdagi kreativlikni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi eng muhim omil – bu mustaqillik bo‘lib, bunda nazariy bilim olish jarayonida mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun zaruriy ta‘limiy shart-sharoitni yaratish alohida pedagogik-psixologik ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan.

Kreativlik – vaziyatni turli jihatdan baholash, nostandart qarorlar qabul qilish va o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Kreativlik qobiliyati yaxshi rivojlangan shaxs ijodkor insonga aylanadi. U yangi noan‘anaviy g‘oyalarni ishlab chiqish va boshqa insonlarning tashabbuslarini rivojlantirishi mumkin. Qiyinchiliklarni engish uning uchun ajoyib jumboqqa aylanadi va bir vaqtning o‘zida bir nechta echimlarni berish imkoniyatini yaratadi. Yechimlarning har xilligi ular orasidan eng mukammalini tanlash imkoniyatini beradi.

Oliy ta‘lim muassasalari talabalariga ta‘lim berish va ularning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ahamiyatli muammolardan biri – ularda faol ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilish bilan chambarchas bog‘liq.

Jamiyatimizning turli sohalarida ijodkorlikni rivojlantirish muammolari keng muhokama qilinmoqda. O‘rganishning uzoq tarixiga qaramay, bizning tanlagan sohamizdagi ko‘pgina masala, qoida va qonuniyatlar qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi, chunki zamonaviy sharoitlarga nisbatan ushbu muammolarni yangicha tushunish zarur. Shuning uchun ham talabalarni ijodkorlik ruhida tarbiyalash kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish zarurdir.


Kreativlik qobiliyatlarni talabalarda rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlaridan biri sifatida – ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish, imkon qadar an‘anaviy o‘qitishni interfaol o‘qitish usullari bilan almashtirish, o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabaning maqsadli sub‘ekt-sub‘ekt samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish zarur.

Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, kompetentlik va kompetentli yondashuvning mazmuni, ta‘riflari va qonuniyatlari, shuningdek, zamonaviy shaxs sifatleri uslubiyotchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ammo, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va texnik vositalari kompetensiyaviy yondoshuv asosida etarli darajada o‘rganilmagan.

Adabiyotlar tahlili asosida kreativ kompetensiya tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rif beramiz: Kreativ kompetensiya – bu mantiqiy fikrlashni shakllantirish, ta‘lim olish faoliyatida motivatsiya, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, turli xil muammoli vaziyatlarda ijobiy qaror qabul qilish va nazariy bilimlarni o‘zlashtirishning yuqori darajasini tavsiflaydi.

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida didaktikaning asosiy tamoyillariga tayandik. Kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning umumiy tamoyillari quyidagicha: fundamentallik tamoyili, ahamiyatlilik tamoyili, fanlararo integrativ tamoyili, nazariya va amaliyot birligi tamoyili, ta‘limning interfaollik tamoyili.

Tadqiqot ishida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasini qo'llashning didaktik asoslari takomillashtirildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasini qo'llashning didaktik asoslari**

Tadqiqotimizda talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi muammolar shakllantirildi: Talabalarning kreativ kompetensiyalarini samarali rivojlantirishning mazmun-mohiyati va pedagogik shart-sharoitlari nimadan iborat? Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun o'qitish usuli qanday bo'lishi kerak? Ushbu muammoni uslubiy hal qilish bizning tadqiqot maqsadimiz bo'lib, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va uni asoslashdir.

Tadqiqotda ba'zi talabalarning aql-zakovat darajasi bo'yicha nazariy bilim darajasini davlat ta'lim standarti talablaridan past deb tasniflash bilan bog'liq muammolar mavjud. Talabalarning nazariy bilim darajasining oshishi, ilmiy dunyoqarashining o'zgarishi, har xil qobiliyatlari, san'at, musiqa yoki ijodning har xil shakllarida noodatiy tarzda namoyon bo'ladi.

Talabalarda kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar faqatgina o'yin xarakterdagi topshiriq yoki muammoli vazifalardan iborat bo'lib qolishi kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha muammoli topshiriq va vazifalar davlat ta'lim standartlari talablariga mos kelishi, talabalarga bilim, ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyish qila olish, fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar talabalarni asta-sekin mas'uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil bilim olishga rag'bat bildiradigan shaxs bo'lishlariga erisha olishlari uchun zamin yaratishi lozim.

Talabalarda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishning muhim pedagogik sharti – uni mustaqil bilim olish, kreativ va ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat. O'qituvchining o'zi o'qitadigan o'quv predmetlariga bo'lgan ijobiy munosabat talabalarning o'quv predmetiga bo'lgan munosabati va o'quv jarayoni oldiga qo'ygan maqsadga erishishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari quyidagicha ifodalanadi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari**

<b>№</b>	<b>Kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari</b>	<b>Talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishda bajariladigan mehnat funksiyalari</b>
1	Kreativ-adaptiv	Ushbu bosqichda talabalarda kreativlik, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillik mavjud bo'ladi va shakllantiriladi.
2	Kreativ-yo'naltiruvchi	Ushbu bosqichda talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli-izlanishli topshiriqlarni bajaradi, o'zi tomonidan hech qanday yangiliklar, o'zgartirishlar kiritilmaydi.
3	Kreativ-izlanuvchi	Talabalarda kichik tadqiqotchilik, ijodiy faollik, noodatiy tafakkur, bilish mustaqilligi, pedagogik improvizatsiya, yangilik yaratishga ishtiyoq, amaliy ko'nikma va nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish malakalarining shakllanishi kuzatiladi.
4	Interfaol-kreativ	Talabalar ushbu bosqichda yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, omalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik loyihalarini tuzish bilan bog'liq jarayonlarni mustaqil bajara oladi.

Jadvalda keltirib o'tilgan bosqichlarni kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishni pedagogik jarayonsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Tadqiqot doirasida

uchta asosiy pedagogik jarayonlardan foydalanishni tavsiya etamiz: shakllar (ma'ruza, seminar, noan'anaviy amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar), uslub va texnologiyalar (TRIZ, intellekt-xarita va boshqalar), vositalar (kompyuter dasturiy mahsulotlar).

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim jarayoni mukammal kreativ pedagogik yondashuvni talab etmoqda. Bu yondashuvning asosi ta'lim jarayonini tashkil qilishda ilg'or pedagogik tajribaga asoslangan faoliyat bo'lib o'qituvchidan o'quv jarayonini o'zgartirish: uning tuzilishi, pedagogik-psixologik tashkil etish, sub'ektlarning noan'anaviy faoliyati, o'zaro ta'sir tamoyillarini mukammal bilish va ularni takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Dissertatsiyaning **“Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mazmun va texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari mazmuni, axborot texnologiyalarning ahamiyati va texnologiyalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.


Talabalarda kreativ fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantirishdan oldin auditoriyada qulay pedagogik-psixologik muhitni yaratish lozim. Sababi, kreativlik xarakterdagi ta'lim-tarbiya muhiti talabalarda kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ muhitda ta'lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ fikrlashga moyil bo'ladi hamda muammoli vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi. Talabalarning kreativ qobiliyatlari ularning e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

O'qituvchining an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi noodatij g'oyalarni yaratishi, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi har xil qobiliyatlarga egaligi uning kreativligini belgilovchi asosiy mezonlardir. Bu mezonlar o'qituvchilarning o'zini o'zi ijodiy tomondan namoyon qila olish layoqatiga egaligi va unga tayyorgarlik darajasini ham ifodalaydi.

O'qituvchining kreativ sifatlarga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham noyob qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalarda, biroq, ularni tushuntirishda sustkashlikka yo'l qo'yadilar. Buning sababi oliy ta'limda qo'llanilayotgan o'qitish metodlari talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Hozirda kreativ fikrlash qobiliyati nafaqat talabalar uchun balki, har bir davlatning kelajagi uchun zarurdir.

Talabalar o'rtasida ijodkorlik va shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini faollashtiradigan yana bir nuqtai nazar – bu faollikni rag'batlantirish va muhokama qilish. To'g'ri tashkil etilgan muhokama faol talabalar ham, o'zini past baholaydigan tortinchoq talabalar uchun ham o'z kuchlarini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotimiz davomida talabalar kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi (2-rasmga qarang).




**2-rasm. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli**

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali deb hisoblaymiz.

“Muammoli vaziyat” metodining mohiyati mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo‘lib, uning asosida mashg‘ulotni tashkil qilish va olib borishda foydalaniladigan didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli vaziyat metodi konsepsiyasining asosiy tushunchalari “muammoli vaziyat”, “muammo”, “muammoni topish”, “muammoni echish”, “ziddiyatlar”, “usullar” kabilar hisoblanadi. “Muammoli vaziyat” metodining dastlabki bosqichi muammoli vaziyatni aniqlash hisoblanib, o‘zida o‘rganilayotgan mavzuga doir ma’lum yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi.

Bu metodni quyidagi klaster yordamida ifodalash mumkin (3-rasmga qarang).



3-rasm. Muammoli vaziyat metodi klasteri

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo‘nalishlar ko‘rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qadnayda bir parametrlari ko‘rsatilsa, u o‘rganilayotgan mavzuga doir ma’lum yoki qisman tushunib etilgan muammoli masala hisoblanadi.

Kompyuter hozirgi davr yoshlari uchun ko‘ngil ochar vosita shakliga aylanib ulgurdi, shuning uchun geymifikatsiya elektron ta’lim muhitida muhim yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi.

Geymifikatsiya quyidagi komponentlardan iborat:

Motivatsiya. Talabalar zarur nazariy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi uchun axborot texnologiyalaridan erkin foydalanishi lozim. O'qituvchilar talabalarning kasbiy ehtiyojlarini qondirishda noan'anaviy ta'lim texnologiyalari yordamida o'qitadi.

Qobiliyat. Talaba mashg'ulotda berilayotgan ma'lumotni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Axborot texnologiyalaridan foydalanishda talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va bo'lajak kasbiy faoliyatidagi intellektual salohiyatini rivojlantirishga harakat qilinadi.

Rag'batlantirish. Talabaning motivatsiyasi va qobiliyatlari qanchalik yuqori bo'lsa, ularni ta'limiy harakatlarini bajarishga undash kerak bo'ladi. Agar talabaning motivatsiyasi yuqori bo'lsada, ma'lum bir kasbiy harakatlarni bajarish qobiliyati etarli bo'lmasa, unda kasbiy harakatni bajarish jarayonini soddalashtirish lozi. Agar talabada qobiliyat etarli bo'lsada, lekin motivatsiyaga ega bo'lmasligi mumkin emas.

Oliy ta'lim sohasining hozirgi rivojlanish bosqichi o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatiga axborot texnologiyalarini ommaviy ravishda kiritish bilan tavsiflanadi. Ta'limni axborotlashtirish uni takomillashtirishga majbur qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanib, uning muhim vositasi – bu internetda nashr etilgan ta'limga oid axborot resurslaridir. Professor-o'qituvchilar tomonidan o'qitiladigan fanlarning interfaol darsliklarini, elektron o'quv-uslubiy majmualarini yoki veb-saytlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarining axborot-ta'lim muhitini yaratishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan oliy ta'limda faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar Microsoft Office dasturlaridan MS Word, MS Excel, MS Power Point, MS Access, amaliy dasturlardan AutoPlay media studio 8, Adobe Flash, Macromedia dreamweaver, web-saytlarni yaratishga mo'ljallangan dasturlardan HTML, TurboSite, WordPress, Joomla va boshqa dasturlardan foydalanib elektron-ta'lim resurslarini va Web-saytlarni ishlab chiqishlari hamda talabalarga pedagogika doir fanlarni o'qitish jarayonida foydalanib, axborot-ta'lim muhitlarini takomillashtirishlari mumkin.

Bu dasturiy paketlardan foydalanishda talabalar mavzularni o'zlashtirishning erishilgan darajasiga mos keladigan nazariy materialni o'rganadilar, o'rganilgan materialni o'zlashtirishning darajasini aniqlash uchun test topshiradilar, qo'shimcha animatsion materiallarni o'rganadilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kreativlikka oid ijodiy muhitni yaratishning quyidagi ahamiyati mavjud: ta'limiy ahamiyati. Ijodiy muhit talabalarning fan asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni ongli o'zlashtirish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni odatiy, tanish vaziyatlar bilan bir qatorda yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga zamin tayyorlab, ularning mustahkamlanishini ta'minlaydi; tarbiyaviy ahamiyati. Talabalar muammoli savollarga javob topish jarayonida ularda topqirlik, chidamlilik, ongli intizom, qiyinchiliklarga bardosh berish, mehnatsevarlik, bajarilgan ishdan zavq olish va bilish quvonchi bilan belgilanadi; shaxs kamolotidagi o'rni. Talabalar shaxsidagi mavjud o'quv mehnati ko'nikmalari bilan bir qatorda mustaqil, kreativ, ijodiy va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalari rivojlantiriladi; ijtimoiy ahamiyati. Talabalarda kreativ hamda ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish va rivojlantirish

kelgusida ularning ongli ravishda kasb tanlashi, mustaqil hayot va jamiyatda o'z o'rnini topishga imkon beradi.

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar bajarilsa samarali bo'ladi: qulay pedagogik muhit yaratish. Talaba shaxsiga bo'lgan ichki munosabatni o'zgartirish va ularning har birida ijodiy hamda kreativ moyilliklarni ko'rish; muammoli ta'lim asosida talabalarning aqliy faoliyatini tashkil etish; talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustaqil ishlar tizimini tashkil etish.

Ijodkorlik va kreativlik talabalar egallayotgan nazariy bilimlarning mustahkamligi va mukammaligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ilm-fan, texnika sirlarini anglash va shu yo'nalishda ta'lim berilsa, respublikamizda erishilgan fan va texnika yutuqlariga tayanib ish ko'rilsa, uning ildizini yanada chuqurroq tushunib, kelajakda kuchli mutaxassislar, fan va texnika yutuqlariga o'z hissasini qo'sha oladigan, pirovardida esa shu yoshlar chet elda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va asbob-uskunalardan mukammal, kuchliroq, mashina, mexnizmlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu yo'lda tinimsiz mehnat qilishi lozim deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning "**Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish**" deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari, natijalari va ularning matematik-statistik tahlili yoritib berilgan.

